

**“SHIRIN QALAMPIRNING BIOKIMYOVIY TARKIBI VA ULARNING
AHAMIYATI” MAVZUSINI O‘QITISHDA QO‘LLANILADIGAN
ZAMONAVIY TA‘LIM METODI**

Ibragimova Aziza Zoyir qizi

G‘oibova Sevara Ayup qizi

Guliston Davlat Universiteti

Annotatsiya: Shirin qalampirning biokimyoviy tarkibi, shirin qalampirning ahamiyati haqida umumiy ma‘lumotlarga ega bo‘lish jarayonida talabalarni o‘qitishda zamonaviy ta‘lim metodining ta‘lim sifatiga ta‘siri haqida ma‘lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Shirin qalampir, biokimyo, ta‘lim metodi, Davra suxbati, dehqonchilik, bosqich, og‘zaki, afzallik, kamchilik.


Hozirgi kunda ta‘lim jarayonida talabalarning o‘zlashtirish darajasini oshirish uchun zamonaviy ta‘lim metodlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, qishloq xo‘jaligi sohasiga oid fanlarda bu usul yaxshi natija beradi. Ma‘lumki, ituzumdoshlar oilasiga mansub shirin qalampir oziq-ovqatda, kosmetologiyada, konserva sanoatida ishlatiladigan muhim qishloq xo‘jaligi ekini hisoblanadi. Shu sababli bugungi mavzuda shu ekinning biokimyoviy tarkibi va ahamiyat haqida so‘z yuritiladi.

1-bosqich: Tayyorgalik. Mavzuning maqsadi: Shirin qalampirning foydali xossalari, tarkibidagi vitaminlar, inson organizmiga ta‘siri, kosmetologiyada ishlatiladigan xususiyatlarini o‘rganish.

2-boshqich: Kirish. Yuqoridagi mavzu yuzasida talabalarning har birida bor bo‘lgan ma‘lumotlar, ko‘nikmalar tinglanadi va umumiyashtirib ma‘lumotlar beradi (ta‘lim beruvchi). Bu jarayonda har bir talaba ishtirok etishi muhim ahamiyatga ega.

3-bosqich: Asosiy qismi. Mavzu o‘tishda “Davra suxbati ” metodi qo‘llaniladi. Bu metod- aylana stol atrofida berilgan masala bo‘yicha ta‘lim oluvchi tomonidan o‘z fikrini bildirish orqali olib boriladigan o‘qitish metodi.

“Davra suxbati” metodi qo‘llanilganda stol-stullar aylana shaklda joylashtirish kerak. Bu har bir ta‘lim oluvchining bir-biri bilan “ko‘z aloqasi” ni o‘rnatib turishga yordam beradi. Davra suxbatining og‘zaki shaklidan foydalaniladi. Og‘zaki davra suxbatida ta‘lim beruvchi mavzuni boshlab beradi, kovertlarni tarqatadi va ta‘lim oluvchilardan ushbu savol bo‘yicha o‘z fikr mulohazalarini bildirishini so‘raydi va aylana bo‘ylab har bir ta‘lim oluvchi o‘z fikr mulohazalarini og‘zaki bayon etadi. So‘zlayotgan ta‘lim oluvchini barcha diqqat bilan tinglaydi. Agar muhokama qilish lozim bo‘lsa, barcha fikr mulohazalar tinglanib bo‘lingandan so‘ng muhokama qilinadi. Bu esa ta‘lim oluvchilarning mustaqil fikrlashiga va nutq madaniyatini rivojlanishiga yordam beradi.



Belgilar:

1.ta'lim oluvchi

2.aylana stol

DAVRA STOLINING TUZILMASI

Bu metod orqali ta'lim oluvchilar berilgan mavzu bo'yicha o'zlarining qisqa va aniq ifoda eta oladi. Bundan tashqari ushbu metod orqali ta'lim oluvchilarni muayyan mavzu bo'yicha baholash imkoniyati yaratiladi. Bunda ta'lim oluvchilar o'zlar bergan savollariga guruhdagi boshqa ta'lim oluvchilar bergan javoblarini baholashlari va ta'lim beruvchi ham ta'lim oluvchilarni obyektiv baholashi mumkin.

“Og‘zaki davra suhbatlari” metodining afzalliklari:

- o‘tilgan materialning yaxshi esda qolishiga yordam beradi;
- barcha ta'lim oluvchilar ishtirok etadi;
- har bir ta'lim oluvchi o'zining baholanishi ma'suliyatini his qiladi;
- o'z fikrini erkin ifoda etish uchun imkoniyat yaratiladi;
- vaqt kam sarflanadi.

“Og‘zaki davra suhbatlari” metodining kamchiliklari:

- og‘zaki javob berilishi sababli shovqin paydo bo‘lishi;
- ta'lim beruvchining o'zi ham rivojlangan fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lishi talab etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

- 1.“Qishloq xo‘jaligi fanlarini o‘qitishda ilg‘or xorijiy tajribalar ” moduli bo‘yicha O‘quv-uslubiy majmua. Toshkent 2017
- 2.Zuev V.I., Qodirxo‘jaev O.K., Adilov M.M, Akromov U.I. Sabzavotchilik va polizchilik. 2009 y. (darslik).